



XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 17-may

VI-68-59-5-74-K/24

Nurota tumani

Tumandagi nomlanmagan qabristonlarni nomlash to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 16-yanvardagi 03/08-400-son xatini va ilova qilingan hujjatlarni o‘rganib chiqib, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining tumandagi nomlanmagan qabristonlarni nomlash to‘g‘risidagi takliflarini muhokama qilib, xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq,

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 11-yanvardagi 05-19-01- 25-sonli ekspert xulosasi hamda yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 11-yanvardagi 05-19-01- 25-sonli ekspert xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga asosan Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining nomlanmagan qabristonlarni nomlash to‘g‘risidagi takliflari ilovaga muvofiq ma’qullansin va tasdiqlansin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (U.Abduraxmonov), Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (M.Nazarov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (R.Saidov), tuman Statistika bo‘limi (Sh. Shukurov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (R.Safarov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (J.Axmadqulov) mazkur qarordan kelib chiqib tegishli hujjat va hisobotlarda belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritсин, yangidan nomlangan qabristonlar nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatalishini ta’milasin.

4.Tuman hokimligi axborot xizmati (L.Mansurov)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida rasmiy e'lon qilish hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokiminining birinchi o'rribosari(A.Bo'riyev), Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi (M.Nazarov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



FAYZIYEV AZAMAT
ISMATOVICH

Xalq deputatlari Nurota tumani
 Kengashining
 2024-yil 17-maydag'i
 VI-68-59-5-74-K/24 -son qaroriga
 1-ilova

Nurota tumanidagi nomlari o'zgartiriladigan geografik obyektlar

T/r	Geografik obyektnin gturi	Geografik obyektni bog'lanishi	Geografik obyektni amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Qabriston	Sentob mahallasi	Nomsiz	Sentob-2	Qonun hujjatlari talablarga muvofiq
2.	Qabriston	Sentob mahallasi	Nomsiz	Yuqori shirinato	Qonun hujjatlari talablarga muvofiq
3.	Qabriston	Sentob mahallasi	Nomsiz	Quyi shirinato	Qonun hujjatlari talablarga muvofiq
4.	Qabriston	Sentob mahallasi	Nomsiz	Bobotonato	Qonun hujjatlari talablarga muvofiq
5.	Qabriston	Sentob mahallasi	Nomsiz	Bibikonato	Qonun hujjatlari talablarga muvofiq
6.	Qabriston	Istiqlol mahallasi	Nomsiz	Yori	Qonun hujjatlari talablarga muvofiq
7.	Qabriston	Amir Temur mahallasi	Nomsiz	Cho'ponobod	Qonun hujjatlari talablarga muvofiq
8.	Qabriston	Bo'ston mahallasi	Nomsiz	Anna Sirtsuluv	Qonun hujjatlari talablarga muvofiq
9.	Qabriston	Yangihayot mahallasi	Nomsiz	Yangiobod	Qonun hujjatlari talablarga muvofiq